

"O'zkiyosanoat" Ajda murojaatlar bilan ishlash tizimi samarali yo'lga qo'yilgan

// 17.04.2026

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-ajda-murojaatlar-bilan-ishlash-tizimi-samaral>



"O'zkiyosanoat" Ajda yuridik va jismoniy shaxslarning murojaatlarini ko'rib chiqish ishlari qonunchilik talablari asosida tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Har bir murojaatda ko'tarilgan masalalar jamiyat rahbariyati ishtirokida atroflicha muhokama qilinib, ularni hal etish choralari ko'rilmoqda.

2026-yilning I choragi davomida jamiyatga jami 89 ta murojaat kelib tushgan. Ularning 27 tasi yozma, 21 tasi og'zaki hamda 41 tasi elektron shaklda yuborilgan. Murojaatlarning 68 tasi jismoniy shaxslardan, 21 tasi esa yuridik shaxslardan kelib tushgani qayd etildi.

Ko'rib chiqilgan murojaatlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 39 tasi ijobiy hal etilgan, 40 tasi bo'yicha fuqarolarga tegishli tushuntirishlar berilgan. Ayni paytda 6 ta murojaat ko'rib chiqish jarayonida bo'lib, 4 tasi vakolat doirasiga muvofiq boshqa tashkilotlarga yo'naltirilgan.

Shuningdek, jamiyat boshqaruv raisi va uning o'rinbosarlari tomonidan hududlarda 4 marotaba sayyor

qabullar tashkil etildi. Ushbu qabullar davomida 19 ta murojaat ko'rib chiqilib, ularning aksariyati joyida ijobiy hal qilindi.

Hududlar kesimida murojaatlarning eng ko'p qismi Navoiy viloyati va Toshkent shahri va viloyati hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, Qashqadaryo viloyatidan, Samarqand va Sirdaryo hamda Farg'ona viloyatlaridan ham murojaatlar kelib tushgan. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Jizzax viloyatlaridan ham alohida murojaatlar qayd etilgan.

Murojaatlar mazmuniga ko'ra, asosiy masalalar ishga joylashish, qonunbuzilish holatlari, mineral o'g'itlar xaridi, xomiylik yordami va hamkorlik masalalari bilan bog'liq bo'lgan. Shuningdek, boshqa turdagi murojaatlar ham ko'rib chiqilgan.

Ta'kidlash joiz, "O'zkimyosanoat" AJda tomonidan murojaatlar bilan ishlash samaradorligini oshirish, aholi va tadbirkorlik subyektlari bilan ochiq muloqotni ta'minlash bo'yicha ishlar izchil davom ettirilmoqda.